

## ANTIK DAVR OLIMLARINING TA'LIM TARBIYAGA OID QARASHLARI

*Tursunboyeva Gulsum To'raqul qizi,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti  
[2000TGT@gmail.com](mailto:2000TGT@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada antik davr olimlarining ta'lismi va tarbiya haqidagi qarashlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy pedagogikaga ta'siri yoritiladi. Sokrat, Platon, Aristotel kabi mutasakkirlarning fikrlari, ta'limning axloqiy, jismoniy va aqliy rivojlanish bilan bog'liqligi hamda falsafiy tafakkurning ahamiyati ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar.** Antik davr, ideal ta'lismi, inson tabiat, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, pedagogika, falsafiy tafakkur.

## ESKİ BİLİM ADAMLARININ EĞİTİME İLİŞKİN GÖRÜŞLERİ

*Tursunboyeva Gülsüm Torakul kızı,  
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi*

**Özet.** Makalede eski çağ bilginlerinin eğitim ve yetişirme konusundaki görüşleri incelenmekte ve ayrıca bunların modern pedagojiye olan etkileri vurgulanmaktadır. Özellikle Sokrates, Platon ve Aristoteles gibi düşünürlerin düşüncelerine, eğitim ile ahlaki, bedensel ve ruhsal gelişim arasındaki ilişkiye, felsefi düşünçenin önemine dikkat çekiliyor.

**Anahtar kelimeler.** Antik çağ, ideal eğitim, insan doğası, entelektüel eğitim, ahlaki eğitim, pedagoji, felsefi düşünce,

## ВЗГЛЯДЫ ДРЕВНИХ УЧЕНЫХ НА ОБРАЗОВАНИЕ

*Турсунбоева Гульсум Торакуль кызы,  
Магистрантка Узбекско-Финского педагогического института*

**Аннотация.** В статье анализируются взгляды античных ученых на образование и воспитание, а также освещается их влияние на современную педагогику. Особое внимание уделяется мыслям таких мыслителей, как Сократ, Платон и Аристотель, связи образования с нравственным, физическим и умственным развитием, а также важности философского мышления.

**Ключевые слова.** Античность, идеальное воспитание, человеческая природа, умственное воспитание, нравственное воспитание, педагогика, философская мысль,

## VIEWS OF ANCIENT SCIENTISTS ON EDUCATION

*Tursunboyeva Gulsum Torakul qizi,  
master's student at the Uzbek-Finnish pedagogical institute*

**Abstract.** The article analyzes the views of ancient scholars on education and upbringing, highlighting their influence on modern pedagogy. The thoughts of thinkers such as Socrates, Plato, and Aristotle, the connection of education with moral, physical, and mental development, and the importance of philosophical thinking are highlighted.

**Keywords.** Antiquity, ideal education, human nature, intellectual education, moral education, pedagogy, philosophical thought.

Ta'lrim va tarbiya insoniyat tarixining muhim tarkibiy qismi bo'lib, insoniyat rivojlanishi bilan birgalikda shakllanib bordi. Uning ildizlari qadimgi sivilizatsiyalarga borib taqaladi. Antik davr olimlari ta'lrim jarayoni, axloqiy tarbiya hamda insonning intellektual rivojlanishi to'g'risida o'ziga xos qarashlarni ilgari surganlar. Ularning fikrlari bugungi ilm-fanning, pedagogikaning shakllanishida muhim rol o'yagan.

Antik davr ta'lrim-tarbiyasining shakllanishi, asosan, Yunoniston va Rim madaniyati bilan bog'liq. Ushbu hududlarda ta'larning asosiy maqsadi ideal fuqaroni tarbiyalash bo'lib, insonning jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan mukammal shakllanishiga katta e'tibor qaratilgan. Bu davrda yashagan Suqrot, Platon, Aristotel, Mark Tulliy Tsitseron, Kvintilian, Mark Avreliy singari olimlar ilm-fan, ta'lrim va tarbiya haqidagi nazariyalarini ilgari surib keyingi davr insoniyat tarqqiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi.

Suqrot (469-399 mil.avv.) Fikrlash orqali ta'lrim. "Men faqat bitta narsani bilaman, u ham shu: men hech narsani bilmayman" [2, 4 b]. O'z davrining eng mashxur faylasufi bo'lib, nazariyalarida ta'larning asosiy maqsadi fikr yuritish va mantiqiy tafakkur orqali insonni shakllantirish deya aytib o'tadi. Sokrat ta'larning asosiy maqsadi odamlarni fikrlashga o'rgatish deb hisoblagan. U o'zining Sokratik usuli orqali o'quvchilar bilan savol-javob orqali haqiqatni aniqlashga intilgan. Unga ko'ra: Inson oldindan hech narsani bilmaydi, ya'ni bilimni izlash kerak. O'qituvchi o'quvchiga tayyor bilim bermaydi, unga to'gri yo'l yo'riq ko'rsatib uni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya ham kishilik jamiyatida muhim bo'lib, odam avvalo o'zini tanishi va yaxshilikka intilishi lozim. Sokratning ta'lrim usuli bugungi interaktiv ta'lrim-savol javob, muhokama, tanqidiy fikrlash metodlarining asosini tashkil qiladi.

Platon (427-347 mil.avv.): Ideal ta'lrim tizimi. U o'zining Davlat (Politeia) asarida mukammal, rivojlangan jamiyat uchun qanday ta'lrim tizimi joriy etish kerakligi yuzasidan fikrlarini bayon etadi. "U ta'lrim 3 bosqichdan iborat bo'lishi zarurligi har bir bosqich yoshiga ko'ra guruhlarga ajratilishini yozadi. Unga ko'ra inson tug'ilganidan 7 yoshga yetguniga qadar oilada tarbiya olishi va bu davrda asosan axloqiy bilimni yaxshi egallashi lozim. Ta'larning keyingi bosqichi 7 yoshdan 18 yosh oraligida bo'lib ushbu davrda jismoniy tarbiya hamda musiqiy bilimlarni egallash kerak. Keyingi davr 18-30 yoshlarni o'z ichiga oladi. Ushbu davr ilmiy ta'lrim davri deb atalib falsafa, matematika, mantiq kabilarni shu davr orasida o'zlashtiradi" [4. 217b]. Platon asarlarida ayollarning ham erkaklar singari bilim olishda teng huquqli ekanligi, iste'dodli kishilar hamisha hurmatga sazavor ekanligini ham ta'kidlab o'tgan. Uning qsrashlari bugungi zamonaviy ta'linda ham oz ifodasini topdi. Yoshga qarab- maktab, litsey, OTM tizimida o'qitish.

Aristotel (384-322 mil.avv): Inson tabiatiga mos ta'lrim. U o'zining Siyosat(Politika) va "Nikomax axloqi" asarlarida ta'limga 3 asosiy sohaga ajratadi:

1. Jismoniy tarbiya
2. Axloqiy tarbiya
3. Aqliy tarbiya

Sog'lom tana va sog'lom ongni shakllantirish uchun jismoniy tarbiya, insoniy fazilatlarining kamol topishida axloqiy tarbiya, mantiq, falsafa hamda ilmiy bilimlarning rivojlanishida aqliy tarbiyaning roli juda katta. Shuningdek Aristotel tajribaga asoslangan o'rghanish orqali inson o'z bilimlarini yanada mustahkamlashi lozimligini ham uqtiradi. Darhaqiqat, tajriba inson hayotida katta o'rinn tutadi. Biror bir narsni boshlashdan oldin avvalo insonda malaka bo'lishi lozim. Aristotelning bu izlanishlari bugungi kun ta'lrim metodida ham keng qo'llanilmoqda. Jismoniy tarbiyaning zamonaviy maktablarda ham keng joriy qilinishi, eksperimental ta'lrim-zamonaviy ta'linda tajriba va laboratorya ishlarining olib borilishi bunga misol bo'la oladi.

Kvintilian(35-100) rimlik olim bu davrda birinchi pedagogik darslik hamda namunali o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi haqida yozgan. Uning asosiy qarashlari "Institutio Oratoria" ("Notiqlik san'ati") asarida o'z ifodasini topgan. Yosh avlodning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada takomillashtirish, ular tabiatan bilim olishga moyilligi sababli yoshlikdan qobiliyatlarini rivojlanishda o'qituvchining roli nihoyatda beqiyosdiri. Kvintilian o'qituvchi oldiga bir qancha talablarni qo'yadi. "Birinchidan mehribon va talabchan bo'lishi, ikkinchidan notiq bo'lishi

kerakligini yozadi". [ 6, 167 b] Kvintilian qarashlari bugungi ta'lim tizimida ham keng qo'llanilmoqda. Pedagogik metodikalar – o'qituvchining shaxsiyati va uslubi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi, shuningdek notiqlik san'ati – zamonaviy ta'limda nutq so'zlash va muloqot ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Mark Avreliy ( 121-180) ham axloqiy tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratib,inson axloqiy fazilatlarini shakllantirish ta'limning muhim qismi ekanligini ta'kidlagan. "Axloqiy tarbiya inson shaxsiyatini shakllantiruvchi asosiy omil ekanligi, o'zini tuta bilish, inson hissiyotlarini boshqara olishi muhimligini yozadi." [ 3, 25b ] Haqiqatan ham o'qituvchi nafaqat bilim berishi, balki tog'ri yo'l yo'riq qorsatadigan ntk davr olimlarining ta'lim va tarbiyaga oid fikrlari zamonaviy ta'lim tamoyillarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda innovatsion ta'lim metodlari, tanqidiy fikrlash, axloqiy tarbiya va jismoniy rivojlanishga asoslangan tizimlar aynan shu qadimiy g'oyalarga tayangan holda rivojlanmoqda.

Antik falsafa va pedagogika qadriyatları nafaqat tarixiy meros, balki kelajak ta'limini rivojlantirish uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, zamonaviy ta'lim jarayonlarida qadimgi olimlarning g'oyalalarini chuqur o'rghanish va ularidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aristotel – Siyosat (Politika). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012. 150 b.
2. Buriyeva, F. (2024). The gradual development of literary tradition and innovation in poetry (From the Post-1960s Period). American Journal of Philological Sciences, 4(11), 86-89.
3. Kadirov, A. – Antik dunyo falsafasi va ta'lim tizimi, Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. 245-b.
4. Mark Avreliy – O'zimga o'gitlar (Meditatsiyalar), Toshkent: Adabiyot va san'at, 2015. 36-b.
5. Platon. Davlat / G'. Ismailov tarjimasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 400 b.
6. Sokrat – Sokratning suhbatlari (Ksenofont asarlari asosida). – Toshkent: Fan, 2001. 79-b.
7. Yunon va Rim falsafasi tarixi. Akademik manbalar, – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. 389-b.